

**UMUMTA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILAR
BILIMINI BAHOLASHDA XORIJIY Tajribalardan foydalanish**

Obidova Muqaddas

ShDPI

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(BT) yo'nalishi 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15541447>

Bugungi kunda ta'lim tizimining zamonaviy talablar asosida takomillashuvi davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Xususan, umumta'lim tizimini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish o'quvchilarning bilimni baholashda ham, sifatli ta'lim berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisda Finlyandiya ta'lim tizimi misolida bilim baholash va umumta'lim jarayonlarini takomillashtirish borasidagi samarali tajribalar o'rganiladi.

Shuningdek, hozirgi globallashtirishning jadal sur'atlar bilan kechayotgan sharoitida har bir mamlakat yoshlar siyosatini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaramoqda. Bu borada yoshlar bilan ishlashga yangicha yondashuvlar, ilg'or usullarni tatbiq etish va munosabatlar tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilmoqda. Ayniqsa, xorijiy davlatlarning zamonaviy, innovatsion ta'lim texnologiyalari va ilg'or tajribalaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar va tajribalarni chuqur tahlil qilish, ularni mamlakatdagi mavjud ta'lim tizimining real holatiga mos ravishda tatbiq etish orqali ta'lim sifatini yanada yuksaltirish mumkin.

Ma'lumki, mamlakatimizda ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar va yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi — umumta'lim maktablari faoliyatini demokratlashtirish, insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirish va o'quv-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida yangilashdir. Shuning uchun ham ta'lim jarayonining mazmuni, shakllari va metodlariga yangicha yondashuv bilan qarash va ularni doimiy takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim esa – bu yangicha fikrlash, sog'lom dunyoqarash va taraqqiyotga intiluvchi yosh avlodni shakllantirish demakdir.

Ayni islohotlar davrida O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajriba va pedagogik yondashuvlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, xorijiy davlatlarda sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalarni mamlakatimizdagi mavjud ta'lim muhitiga moslashtirib qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy choralar



ko'rilmogda. Bu boradagi faoliyat, ayniqsa, Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlarini o'rganish va ularni mahalliy tajriba bilan uyg'unlashtirish orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda jahon miqyosida Finlyandiya ta'lim tizimi eng samarali tizimlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu tizimning yuksak natijalarga erishishida radikal va innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutgani ta'kidlanmoqda. Mazkur ilg'or tajribaning O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy qilinayotgani esa islohotlarning ijobiy yo'nalishda rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Finlyandiya tajribasiga asoslangan ta'lim yondashuvlari – o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativlikni rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarga urg'u berish kabi jihatlar tobora ko'proq e'tibor markazida turibdi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimini zamon talablariga mos ravishda yangilashda va xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, Finlyandiyaning ilg'or pedagogik tajribasidan samarali foydalanish orqali O'zbekiston ta'lim tizimida sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati paydo bo'lmoqda.

Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari:

- Ta'lim bepul va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratilgan.
- Darslar o'quvchi markazida tashkil etiladi, amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor.
- O'qituvchilar yuqori malakaga ega bo'lishi shart, pedagogik kasb jamiyatda yuqori obro'ga ega.
- Ta'limda stressni kamaytirishga, ijtimoiy-emotsional muhitga katta e'tibor qaratiladi.

Bilimni baholash tizimi esa quydagicha:

- An'anaviy reyting va testlar o'rniga, muntazam formatda o'quvchining rivojlanishiga qarab baholash.
- O'z-o'zini baholash va o'qituvchi fikri asosida shakllanuvchi moslashuvchan yondashuv.

Shuningdek, Finlyandiya ta'lim tizimi o'zining o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvi, insonparvarlik va demokratik qadriyatlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu tizimda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari – o'quvchi, o'qituvchi va ota-onalar – o'zlarini teng huquqli va hurmatli his qiladigan ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishga alohida e'tibor qaratiladi. 1998 yilda qabul qilingan Finlyandiya ta'limi to'g'risidagi asosiy qonunda ta'lim tizimining uchta strategik maqsadi belgilab berilgan: birinchidan, o'quvchilarga hayotda



muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish; ikkinchidan, jamiyatda ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish; uchinchidan, butun mamlakat bo'ylab ta'lim imkoniyatlarida tenglikni ta'minlash.

Finlyandiya barcha maktablar teng maqomga ega bo'lib, o'quvchilar qobiliyatiga qarab alohida ajratilmaydi. Bu yondashuv diskriminatsiya va ijtimoiy tabaqalanishni oldini olishga qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim 6 yilni tashkil etadi, va bu davrda, ayniqsa 3-sinfgacha, o'quvchilarga rasmiy baho qo'yilmaydi. Bu holat o'quvchilarda stressni kamaytirib, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, uy vazifalarining deyarli berilmasligi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va darsdan tashqari vaqtini samarali tashkil etishlariga imkon beradi.

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy qilish Finlyandiya maktablarining yana bir muhim xususiyatidir. 2017 yildan boshlab ko'plab maktablarda an'anaviy ruchka va daftarlar o'rniga planshet va kompyuterlar ishlatilmoqda. Bu esa raqamli savodxonlikni oshirishga, shuningdek, o'quvchilarning texnologik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tizim ikki bosqichli boshqaruv asosida tashkil etilgan: Ta'lim va madaniyat vazirligi oliy ta'limni nazorat qiladi, Milliy ta'lim agentligi esa maktabgacha va maktab ta'limini boshqaradi. Shunga qaramay, ta'lim muassasalarining kundalik faoliyatini mahalliy hokimiyatlar mustaqil tarzda amalga oshiradi. Maktablarda rasmiy tekshiruvlar o'tkazilmasligi esa tizimda ishonch madaniyati shakllanganidan dalolat beradi.

Finlyandiya ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlovchi asosiy yetti tamoyil quyidagilardan iborat:

Tenglik – Barcha o'quvchilar yagona o'quv dasturlari va teng shart-sharoitlarga ega. Bu tamoyil ta'limda ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bepul ta'lim – Ta'lim olish mutlaqo bepul bo'lib, barcha o'quv anjomlari va tushliklar ham davlat tomonidan taqdim etiladi. Bu har bir bola uchun ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi.

Individuallashtirilgan yondashuv – Har bir o'quvchining ehtiyojlari inobatga olinadi. O'qituvchilar bilimni o'zlashtirishda qiynalayotgan yoki ilg'or o'quvchilar bilan alohida ishlaydi.

Amaliy yondashuv – Ta'lim faqat nazariy bilimlarga emas, balki hayotiy ko'nikmalarga yo'naltirilgan. O'quvchilar amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etib,



real hayotga oid faoliyatlarni o'rganadilar: moliyaviy savodxonlik, texnologiyalar, kundalik hayot ko'nikmalari va boshqalar.

O'qituvchiga ishonch – Fin maktablarida ishlovchi barcha o'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishlari shart. Ota-onalar va jamiyat o'qituvchilarga to'liq ishonadi, bu esa ta'lim sifati uchun muhim kafolatdir.

Ixtiyoriylik – Darslarda ishtirok etish majburiyatdan ko'ra, qiziqishga asoslangan. O'quvchilar darsdan chiqib ketish yoki boshqa foydali mashg'ulot bilan shug'ullanish huquqiga ega. Bu esa dars jarayonini yanada jonli va mazmunli qiladi.

Mustaqillik – O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topa olish ko'nikmalarini shakllantirish ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy rivojlanish yo'lini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ya'ni, Finlyandiya ta'lim tizimi har tomonlama mukammallikka intilgan, ijtimoiy adolat, amaliyotga yaqinlik va o'quvchi manfaatlarini ustuvor qo'yish bilan ajralib turadigan modeldir. Bu tajriba O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb va o'rganishga arzigulik namuna sifatida xizmat qilmoqda.

Finlyandiyaning ta'limdagi ilg'or yondashuvlari O'zbekiston umumta'lim tizimini takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Finlyandiya tajribasida o'quvchilarga yo'naltirilgan, psixologik bosimdan holi va hayotga tayyorlovchi ta'lim modeli asos qilib olingan. Baholash tizimi esa raqobat emas, rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib, ballik baholash o'rniga o'quvchilarning o'sish trayektoriyasi, amaliy ko'nikmalari va ijodiy fikrlashi inobatga olinadi.

Finlyandiyada tenglik, bepul ta'lim, o'qituvchilarga ishonch, uy vazifalarining yo'qligi, mustaqil fikr yuritish va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor berilishi kabi tamoyillar ta'lim sifatini oshirgan. O'zbekiston uchun ushbu tajribani milliy sharoitga moslashtirib, baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish, individual yondashuvni kuchaytirish va o'qituvchilar salohiyatini oshirish muhim vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, Finlyandiya ta'lim tizimi nafaqat yuqori natijalarga erishgan, balki insonparvarlik va o'quvchi shaxsini to'liq rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizimning muhim jihatlarini O'zbekiston umumta'lim tizimiga moslashtirib tatbiq etish, ta'lim sifatini oshirishda samarali yechim bo'la oladi. Ayniqsa, bilim baholashdagi moslashuvchanlik, o'quvchi markazidagi yondashuv va o'qituvchi malakasini oshirishga qaratilgan strategiyalar dolzarbdir.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Juraev A., Turg'unova S. Pedagogik texnologiyalar va ta'limda zamonaviy yondashuvlar, Toshkent, 2021.
2. Karimova N. O'quvchilarning bilim darajasini baholash tizimi va samaradorlik mezonlari, Toshkent, 2020.
3. Norqobilov B. Ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni o'rganishning metodologik asoslari, 2022.

